

**“O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyati**  
**Komplayens – xizmati tomonidan joriy yilning dastlabki 9 oyi davomida amalga**  
**oshirilgan ishlar to‘g‘risida HISOBOT**

“O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – *Jamiyat*) ning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens – xizmatiga **5 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan **4 nafar** xodimlar bilan to‘ldirilgan. Hozirda **1 ta** vakant lavozimlariga xodimlarni ishga olish bo‘yicha tanlov jarayonlari davom etmoqda.

Jamiyat Boshqaruv raisi – Bosh direktori tomonidan 2022-yil 14-dekabrda Komplayens – xizmatining **15 banddan** iborat 2023-yil ish rejasi tasdiqlangan. Ish rejasining **11 ta** bandlari ijrosi to‘liq ta‘minlanib, qolgan **4 bandi** bajarilishi nazoratga olingan.

2023-yil 11-aprelda Jamiyatning ochiqlikni ta‘minlash yo‘nalishidagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan **9 ta** banddan iborat chora tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturning **4 ta** bandi ijrosi to‘liq ta‘minlandi. Dasturning **5 ta** bandlari bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

2023-yil 24-mayda Jamiyat tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarning buzilish xavflarni kamaytirish bo‘yicha **7 ta** banddan iborat chora – tadbirlar dastur tasdiqlandi. Dasturning **4 ta** bandi ijrosi to‘liq ta‘minlandi. Dasturning **3 ta** bandlari bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini talabi hamda Komplayens – xizmatining tasdiqlangan ish rejasi asosida joriy yil **9 oyi** davomida **6 ta** ichki idoraviy hujjat ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda (*jami 14 ta ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilgan*).

*Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, Komplayens – xizmatining Nizomi, Xodimlarni o‘doh – axloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘q‘itilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnoma, Korrupsiyaga oid harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va qayta ishlash Reglamenti, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tartib – taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom, Sanksiyalar bo‘yicha komplayens Siyosati, Xavflarni boshqarish bo‘yicha Siyosat, Monopoliyaga qarshi kurashish Siyosati, Jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va o‘dohloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha REGLAMEN, Jamiyatda, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘q‘itilishini tashkil qilish bo‘yicha YO‘RIQNOMA, Jamiyatda, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma, Jamiyatda, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha NIZOM, Jamiyatda, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash USLUBIYOTI, Jamiyatda, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha YO‘RIQNOMA)*

Shu bilan birga, Jamiyat Bosh direktori – Boshqaruv raisining ishchi – xodimlar va jamoatchilik uchun **korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaati** ishlab chiqildi va xodimlar e'tiboriga yetkazildi.

Jamiyatning [www.uzbeksteel.uz](http://www.uzbeksteel.uz) rasmiy veb-saytida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma'lumotlar” bo'limlari joriy etildi. Mazkur bo'limlarda ichki idoraviy hujjatlar, e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (*ishonch telefoni va elektron pochta*) aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Komplayens – xizmatining mas'ul xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirildi hamda ushbu ma'lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olindi.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida Komplayens – xizmatiga jami **14 ta** ijro hujjatlari kelib tushgan bo'lib, barcha hujjatlarining ijrosi ta'minlandi.

Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan (*korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash*) Uslubiyot hamda Jamiyatning tegishli ichki idoraviy hujjatlariga asosan Jamiyat markaziy apparatining **25 ta** tashkiliy birlik va bo'linmalarning **142 ta** funksiyalari baholandi.

Jamiyatda xavf-xatarlarni oldini olish yuzasidan 2023-yil 17-iyul'da **136 banddan** iborat Dastur (Yo'l xaritasi) tasdiqlandi.

Komplayens - xizmati tomonidan “O'zmetkombinat” AJning ishlab chiqarish, moliyaviy, xo'jalik va boshqa faoliyati bo'yicha **xavflar xaritasi** ishlab chiqildi va joriy etildi, unda strategik, operatsion, moliyaviy va qonun hujjatlariga (komplayens xavflar) rioya qilish sohasidagi **229 ta** xavflar tavsiflangan.

Bundan tashqari, joriy yil **9 oyi** davomida tanlov asosida ishga qabul qilinuvchi **249 nafar** nomzodlar ustidan tekshiruvlar amalga oshirildi.

Komplayens - xizmati tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarga muvofiq, Xodimlarni boshqarish departamenti kombinatning barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalari ishchi - xodimlari tomonidan har yili manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni (shu jumladan, boshqa lavozimga o'tkazilganda va rotatsiya qilinganda) to'ldirilishini nazorat qilib bordi. Komplayens - xizmati tashabbusi va tavsiyasi bilan Xodimlarni boshqarish departamenti tomonidan mehnat shartnomalariga va Sotib olishlar boshqarmasi tomonidan xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi bandlar kiritildi.

### ***Xarid qilish jarayoni***

Komplayens - xizmati tomonidan Kombinatning xarid jarayonlarini tashkil etish samaradorligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida “O'zmetkombinat” AJning **611 ta** amaldagi va potentsial kontragentlarining (may oyidan boshlab jami **920 ta**) **xalqaro, G'arbiy va Yevropa sanksiyalariga** muvofiqligi tekshirildi va ushbu tekshiruvlar yuzasidan **139 ta** xulosa berilgan. Kontragentlarni lozim darajada tekshirish doirasida, belgilangan talablarga muvofiq kontragentlarning davlat byudjeti oldidagi qarzlari (*soliqlar, MIB oldidagi qarzlar*) mavjudligi, uning faoliyati (*ishlayotgan korxonalar yoki faoliyati to'xtatilganligi*), manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi, uning offshor zonalarida ishlashi, bankrotlik xavflari va boshqalar tekshiriladi.

“O'zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashining 2023-yil 12-sentyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “Komplayens-xizmati to'g'risida”gi yangilangan Nizomga (12-sonli

bayonnoma) muvofiq Komplayens - xizmatiga **xaridlar jarayoni narx siyosatining asosligini tekshirish funksiyasi** o'tkazildi. Bugungi kunga qadar Komplayens - xizmati tomonidan tovarlar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish narxlarini ekspertizadan o'tkazish doirasida **35 ta** talabnoma ko'rib chiqilishi natijasida narxlarning **6 146 681 162,00** so'mga oshganligi aniqlanib, ushbu holatlar yuzasidan xarid qilish tartib-taomillarining narx parametrlarini optimallashtirish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

### ***O'quv seminarlari***

Hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan "O'zmetkombinat" AJ tarkibiy va hududiy bo'linmalari rahbarlari va yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xorijlik ekspert ishtirokida xavflarni boshqarish va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha **7 ta** umumiy va maxsus o'quv seminarlari tashkil etildi va o'tkazildi.

Komplayens - xizmati tashabbusi bilan har bir tarkibiy bo'linma va ishlab chiqarish bo'limidan xavflar bo'yicha **36 nafar** muvofiqlashtiruvchilar (koordinatolar) tayinlandi.

Maxsus o'quv seminarlarida asosiy e'tibor tayinlangan koordinatorlarni ishlab chiqarish, moliyaviy, xo'jalik va "O'zmetkombinat" AJ faoliyatidagi barcha xavflarni aniqlash va ularni qisqartirish hamda bartaraf etish bo'yicha tegishli mos tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha malakalarini oshirishga qaratildi.

Komplayens - xizmati tomonidan "O'zmetkombinat" AJ ning korrupsiyaga qarshi komplayens tizimiga oid ma'lumotlar" va "Korrupsiyaga oid ma'lumotlar qo'llanma"lari hamda "Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi hamda boshqa qoidabuzarliklarni oldini olish yo'nalishida tarkibiy va hududiy bo'linmalarning majburiyatlari" maxsus o'quv kursi dasturlari va "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil etish va korrupsiyani oldini olish asoslari" malaka oshirish o'quv kurs dasturlari ishlab chiqildi.

### ***Komplayens tekshiruvlar***

Hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan ikkita majmuiy komplayens tekshiruvlari amalga oshirildi:

– "Metallurg" PFK MChJ sho'ba tashkiloti (O'zmetkombinat AJning 100 foiz ulushi) faoliyati komplayens tekshiruvdan o'tkazilib, xaridlar jarayoni, ish vaqtini hisobga olish, shartnomaviy faoliyat, shu jumladan kadrlar hisobini yuritish, ovqatlanish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha aniqlangan kamchiliklar yuzasidan bartaraf etish uchun tavsiyalar berildi.

- O'zmetkombinat AJ "Oziq-ovqat kombinati" tarkibiy bo'linmasi omborlardagi oziq-ovqat mahsulotlari, meva-sabzavot va boshqa tovar-moddiy boyliklarning kiritilish va chiqimlarini buxgalteriya hisobi bo'yicha tashkil etish, kombinat oshxonalarida ovqatlanishni O'zbekiston Respublikasi SanQvaM talablariga muvofiq, shu jumladan, shikoyatlar kitobi, sanitariya-gigiyena me'yorlari va tartiblarini qayd qiluvchi hujjatlar mavjudligi komplayens tekshiruvdan o'tkazildi. Komplayens tekshiruvi natijalariga ko'ra aybdor xodimlarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun materiallar Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamentiga yuborildi.

### ***Tashkilot va tashviqot***

Xodimlar o'rtasida keng miqyosda targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish va ishchi – xodimlar huquqiy ongini oshirish maqsadida "O'zmetkombinat" AJ

“Korrupsiyaga qarshi kurash Siyosati” va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosat”lari asosida amalga oshirilayotgan chora - tadbirlar yo‘nalishida Komplayens - xizmati tomonidan tegishli mavzularda **8 ta** audiorolik va **3 ta** videorolik tayyorlanib, Kombinat rasmiy veb-sayti va rasmiy telegram kanalida joylashtirildi. Ushbu yo‘nalishlar doirasida **9 ta** yozma targ‘ibot materiallari ishlab chiqilib, ular Kombinat rasmiy veb-sayti va rasmiy telegram kanalida xodimlar, hamkorlar, kontragentkar va barcha kuzatuvchilar e‘tiboriga havola etilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha ishchi - xodimlarning bilim darajasini o‘rganish maqsadida Kombinatning rasmiy telegram kanalida ijtimoiy so‘rov o‘tkazilib, “Metallurg minbari” gazetasining oylik nashrlarida Kombinat rahbari va o‘rinbosaralarining korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida **4 ta** maqolasi chop etildi.

### ***Xodimlarning murojaatlari va “ishonchli aloqa kanallarini” faoliyatining tashkil etilganligi***

2023 yilning **9 oyi** davrida korrupsiya holatlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali **5 ta** murojaat kelib tushgan bo‘lib, barcha murojaatlar tegishli tarkibiy bo‘linmalarni jalb qilgan holda ko‘rib chiqilib, murojaat qilganlarga yozma va og‘zaki javoblar berildi.

Kombinat tarkibiy va hududiy bo‘linmalari ishchi - xodimlari o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi haqida holatlarni xabar berishlarini yengillashtirish maqsadida Telegram ijtimoiy tarmog‘ida **UMK\_Anticorbot** ishga tushirildi va ushbu ilovadan foydalanish bo‘yicha videorolik tayyorlanib, rasmiy veb – sayt va ijtimoiy tarmoqlarda kuzatuvchilar hukmiga havola etilmoqda.

Telegram ijtimoiy tarmog‘idagi **UMK\_Anticorbot 6 bo‘limga** ega, jumladan:

- poraxo‘rlik va korrupsiya;
- buxgalteriya hisobining buzilishi;
- mehnat va mehnat sharoitlarining teng bo‘lmaganligi;
- salomatlik, xavfsizlik va atrof-muhitga tahdid;
- axborotning chiqib ketishi (tarqatilishi) / yo‘q qilinishi;
- Boshqa qoidabuzarliklar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini **reyting baholash** tizimini joriy etish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qaroriga ko‘ra, 2023-yil **9 oyi** bo‘yicha talab etiladigan **29 turdagi** ma’lumot va hisobotlar “**E-Anticor.uz**” elektron platformasoga kiritildi.

